

UDK: 812.543.132.(045).811.32

TOPONIMLARINING MORFOLOGIK TUZILISHI TAHLILI VA TASNIFI (SHIMOLIY TOJIKISTON TOPONIMLARI MISOLIDA)

Turdibekov Mo'min To'rayevich,

Renessans ta'lim universiteti professori, fil.f.doktori

E-mail: mominjonturdibekov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shimoliy Tojikiston toponimlarining struktur xususiyatlari atroficha tahlil qilinadi. Toponimlarning tahlili va tasnifi doirasida ularning struktur xususiyatlarini kuzatish muhim jihatlardan hisoblanadi. Toponimlarning shakily tuzilishi, grammatick xususiyatlarini tahlil qilish, topomimlarning qo'yilish sabablarini, anglatgan ma'nolarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega ekanligi Shimoliy Tojikiston toponimlari misolida ko'rsatib berildi. Shuningdek topomimlarning struktur tahlili natijalari asosida sodda tarkibli topomimlar yetakchi ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar. Sodda tarkibli topomimlar, qo'shma tarkibli topomimlar, murakkab tarkibli topomimlar, antropomin, zootoponym, fitotopomin, etnotopomin, orotopomin, gidrotopomin, birikma shaklidagi topomimlar, gap shaklidagi topomimlar.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются структурные особенности топонимов Северного Таджикистана. В рамках анализа и классификации топонимов одним из важных аспектов является соблюдение их структурных особенностей. На примере топонимов Северного Таджикистана показано, что особое значение имеет анализ формальной структуры топонимов, анализ грамматических особенностей, причин размещения топонимов, их значений. Также по результатам структурного анализа топонимов установлено, что лидерами являются топонимы с простым содержанием.

Ключевые слова. Топонимы простого состава, составные топонимы, топонимы сложного состава, антропонимы, зоотопонимы, фитотопонимы, этнотопонимы, оротопонимы, гидротопонимы, топонимы составные, топонимы предложные.

Annotation. In this article, the structural features of the toponyms of Northern Tajikistan are thoroughly analyzed. Within the analysis and classification of toponyms, observing their structural features is one of the important aspects. It was shown on the example of the toponyms of Northern Tajikistan that the analysis of the shape structure of toponyms, the analysis of grammatical features, the reasons for the placement of toponyms, and their meanings are of particular importance. Also, based on the results of the structural analysis of toponyms, it was found that toponyms with simple content are the leaders.

Keywords. Simple compound toponyms, composite toponyms, complex compound toponyms, antroponym, zootoponym, phytotoponym, ethnophytonym, orotoponym, hydrotoponym, compound-shaped toponyms, gap-shaped toponyms.

Kirish. Toponimlarning struktur xususiyatlari ham o'ziga xos tarzda tasnif qilinib kelinmoqda. Bu tasnifda, asosan, topomimlarning shakliy tomoniga asosiy e'tibor qaratilishi tabiiy. Toponimlarning struktur jihatdan tasniflanishi ham topomimikaning vazifalari sirasida alohida o'rin tutadi. Toponimlarni tadqiq qilish

amaliyotidan ma’lumki, ma’lum bir hududning geografik nomlarini o‘rganayotganda, toponimlarni o‘rganish va tasniflashda sezilarli natijalarga erishish uchun ularning turli parametrlariga e’tibor berish taklif qilinadi [9.3-18]. Bular sirasida toponimlarning shakliy tuzilishi masalasi ham nazardan chetda qolmaydi.

Toponimlarning tahlili va tasnifi doirasida ularning struktur xususiyatlari ham alohida qayd qilinadi:

- toponimlarning tuzilishi va yasalishi;
- toponimlarning fonetik xususiyatlari (fonetikasi);
- toponimlarning sintaktik xususiyatlari;
- toponimlarning semantikasi va haqiqiy ma’nosi (etimologiyasi);
- toponimlarning ishlatalishining tarixiy asosi;
- joy nomlarining tabiiy va tarixiy hodisalar bilan bog‘liqligi;
- joy nomlarining etnik guruhlarning ko‘chishi bilan bog‘liqligi;
- toponim yoki uning bir qismi tarqalishining chegaralari va sabablari;
- mifologiya, din va urf-odatlarga qarab toponimlarning kelib chiqishi va qo’llanishi;
- toponimlarning yo‘q bo‘lib ketishi yoki cheklanganlik sabablari;
- toponimlarni o‘zgartirish sabablari [2.3-9].

Asosiy qism. Geografik obyektlarga atab qo‘yilgan nomlarning shakliy tuzilishi, grammatik xususiyatlarini tahlil qilish, avvalo, toponimlarning shakllanish jarayoni va bosqichlarini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Joy nomlarining struktur tadqiqida toponimlarning morfemik tarkibi, grammatik vositalarning turi, ularning ishtiroki darajasi masalasi ham muhim sanaladi. Zero, “... topominika geografik nomlarni tashkil etuvchi maxsus formantlar yaratmaydi, balki tilning vositalari va xususiyatlaridan foydalanadi” [8-180], ularning toponimlar shakllanishidagi o‘rni va vazifasini baholaydi. Toponimlarning shakliy tarkibi xususiyatlarini o‘rganish doirasida ularning tuzilishi, morfemik tarkibi, yasalish usuli, toponimlarning hosil bo‘lishida formantlarning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Geografik nomlarning strukturaviy xususiyatlarini, shuningdek, grammatik shaklini o‘rganish asosiy va muhim muammo sifatida, bir tomonidan, etimologiyaga yaqin, ikkinchi tomonidan esa ajratib ko‘rsatishga ko‘maklashadi [4.15-22]. Shuningdek, muayyan hudud toponimlarini tuzilish va tarkib jihatdan tadqiq qilish u yoki bu til bilan tarixiy aloqalarini oydinlashtirishga ham hissa qo‘sadi.

O‘zbekiston hududiy toponimlarining dastlabki monografik tadqiqotini amalgaloshirgan taniqli toponimist T.Nafasov tomonidan Qashqadaryo toponimlari tarkibiga ko‘ra sodda va qo‘shma turlarga ajratib tahlil qilingan [7-24]. O‘zbek tili

gidronimlarini tarixiy-lisoniy aspektida tadqiq qilgan N.Uluqov gidronimlarni tarkibiy jihatdan 1. Sodda tarkibli gidronimlar. 2. Qo'shma tarkibli gidronimlar. 3. Murakkab tarkibli gidronimlar tarzida tasniflaydi [12-38]. Taniqli olim Z.Do'simov Xorazm toponimlarining tadqiqiga bag'ishlangan monografiyasida toponimik birliklarni, morfologik tuzilishi tasnifiga o'ziga xos yondashib, quyidagicha tasniflaydi: 1. Apellyativ nomlar. 2. Formantli nomlar. 3. Indikatorli nomlar [3-104]. Tadqiqotchi Sh.Temirov Samarqand viloyati oronimlarining tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida esa sodda tub oronimlarni morfologik jihatdan ot asosli, sifat asosli oronimlarga ajratadi [10-19]. Tadqiqotlardan ko'rindiki, onomastik birliklarning morfologik tuzilish jihatdan tasnifida toponimik birliklar asosi miqdori, morfologik tarkibi soniga asoslangan, ana shu holat tasniflardagi umumiylilikni ta'minlash omili bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama Amalga oshirilgan toponimik tadqiqotlar izidan borib, Shimoliy Tojikiston toponimlarini tarkibiy tuzilish jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) sodda tarkibli toponimlar.
- 2) qo'shma tarkibli toponimlar.
- 3) murakkab tarkibli toponimlar [17-87].

Sodda tarkibli toponimlar. Bular tarkibi birligina lug'aviy asosdan iborat joy nomlari sodda tarkibli toponimlardir. Sodda tarkibli toponimlar tarkibi bitta asosdan tashkil topganligi bilan alohidalik kasb etadi.

Shimoliy Tojikiston toponimlarining sodda tarkibli birliklarini nomlash obyektiga ko'ra quyidagi ichki guruhlarga ajratamiz:

- a) sodda tuzilishli shahar, tuman nomlari: Asht, Matcho, Xo'jand, Nov, Isfara, G'onchi, Shahriston kabilar;
- b) sodda tuzilishli qishloq nomlari: Degmoy, Xitoy, Qo'rg'oncha, Past, Tentak, Langar, Osiyo, Yangi, Kamar, Jo'sh, Mang'it, Qizili, Yaxtan, Nayman, Baxmal, Dam, Kenagas, Ravot, Mujun, Lakat, Qipchoq, Boyavut, Uyas, Arg'u, Varsiq, Yova, Qatag'an, Qo'riq, Do'lona, Patar, Turk, Jar, Saroy, Taqachi, Cho'yanchi, Uvoq, Qizili, Ovchi kabilar;
- v) sodda tuzilishli guzar nomlari: Bog'cha, Qo'rg'on, Takan, Ravon, Jangal, Turk, Burchak, O'rta, Laylak, Qassoblar, Qo'ruq, Chuqurcha, Toshkandlik, Toshbek, Qorabek, Ichkarilik, Balandlik kabilar;
- g) sodda tuzilishli mahalla nomlari: Ichkari, Tulki, Gunbaz, Yuqori, Boy, Qozi, Ichki, Jangal, Chuqur, Toshloq, Og'aliq, Mirlar kabilar;

d) sodda tuzilishli ovul nomlari: Xalqa, To'qmoq, Oppon, Zambarak, Kamar, Do'ngalak, Sarimsoqli, Olmali, Jingilik kabilar;

e) sodda tuzilishli bog‘, dala va yaylov nomlari: Devona, Qo‘ng‘iro, Tallovi, Dam, Manora, Kunjak, Tozak, Kaptarxona, Mozorchha, Tulkixona, Ko‘tarma, Yoriqlik, Yantoqzor, Kaftarchik, O‘rtaliq kabilar;

yo) sodda tuzilishli ariq, soy, buloq, daryo nomlari: Soycha, Bo‘z, Yangi, Qo‘ruq, Maydon, Ingichka, Oq, Ahmadshoh, Axtachi, Yaxtan, Itorchi, Lolazor kabilar;

j) sodda tuzilishli tepalik, adirlik, tog‘ nomlari: Farhod, Tangi, Zog‘chalik, Soycha, Dam, Sachratma, Chertak, Chillaxona, Sho‘rcha, Yettivoy, Mug‘ultoy, Dukchi kabilar.

Shimoliy Tojikiston toponimiyasidagi sodda tarkibli toponimik birliklarni morfologik tarkibi jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin:

1) ot asosli sodda toponimlar:

a) ot asosli: Asht, Matcho, Xo‘jand, Xitoy, Langar, Osiyo, Kamar, Mang‘it, Nayman, Ravot, Qipchoq, Boyavut, Uyas, Qo‘riq, Do‘lona, Turk, Jar, Saroy, Zambarak kabi;

b) ot+qo‘shimcha=ot asosli: G‘onchi, Shahriston, Zafarobod, Qo‘rg‘oncha, Taqachi, Ovchi, Soycha, Tulkixona, Ichkarilik, Yoriqlik, Qizak, Og‘aliq, O‘rtaliq, Yantoqzor, Arablar, Mirlar va boshqalar;

v) sifat+qo‘shimcha=ot asosli: Pastki, O‘rtaliq kabi;

g) fe'l+qo‘shimcha=ot asosli: Qayirma, Sachratma, Ko‘tarma, Qotma kabilar;

d) taqlid+qo‘shimcha=ot asosli: Sharshara.

2) sifat asosli sodda toponimlar:

a) sifat asosli: Past, Tentak, Ichki, Bo‘z, Yangi, Ingichka, Oq, Chuqur, Boylar, Qorabek, Eski kabi;

b) ot+qo‘shimcha=sifat asosli: Sarimsoqli, Olmali, Jingilik, Tutli, O‘roqli, Yantoqli, Qalmoqi, Ichki va boshq.;

3) son asosli sodda toponimlar: Yettivoy (tepalik), Qirq (guzar), Duoba (qabriston), Chorku (shahar) kabilar.

Sodda tarkibli toponimlar sirasida, kuzatilganidek, ot, sifat turkumidagi so‘zlar yetakchilik qiladi, miqdor bildiruvchi so‘z ishtirot etgan sodda tuzilishli toponimlar sanoqli bo‘lsa, bu turdagи toponimlar orasida fe'l va boshqa so‘z turkumlariga mansub birliklar uchramaydi.

Shimoliy Tojikiston toponimiyasida sodda toponimlar miqdor jihatdan anchani tashkil qiladi. Ularning morfemik tarkibida turli grammatik vositalar: so‘z yasovchi,

shakl yasovchi, yordamchi so'zlar ham ishtirok etadi. Morfemik tarkibida grammatic qo'shimchalar ishtirok etsa-da, ular morfologik tuzilishiga ko'ra sodda tarkibli toponimlar sirasida qayd qilinishi shubhasiz. Shimoliy Tojikiston toponimiyasidagi sodda tarkibli toponimik birliklar bitta lug'aviy birlik (asos)dan hamda bitta lug'aviy birlik va yasovchi qo'shimchadan tarkib topib, morfologik xususiyatlari, morfemik strukturasi jihatidan, bir tomondan, qo'shma va birikma tarkibli joy nomlaridan farqlilikka ega bo'lsa, boshqa tomondan, boshqa hudud sodda tuzilishli toponimlari bilan o'zaro umumiyliklarga ega alohida paradigmni tashkil qiladi.

Shimoliy Tojikiston toponimlari tizimiga mansub birliklarning birdan ortiq asosdan tashkil topganligi ularni alohida morfologik strukturaga ega toponimlar tarzida ajratishga asos bo'ladi. Ma'lumki, tilshunoslik sohasida qo'shma tarkibli so'zlar va ularning hosil bo'lish vosita hamda omillari masalasi talqinida turli yondashishlar mavjud. Bu borada akademik A.Hojiyev tomonidan qator fikrlar bildirilgan, ularda qo'shma so'zlarning yasalishida sintaktik-leksik, kompozitsiya usuli qayd qilinadi [13-30], biroq keyingi tadqiqotlarida qo'shma so'zlar yasalish hodisasi mahsuli ekanligi rad qilinganligini kuzatish mumkin [14.35-42]. Qo'shma asosli toponimlar ham qo'shma so'zlar guruhiga mansubligi nuqtai nazaridan o'ziga xos talqinni taqozo qiladi. Toponimlar tarkib jihatdan tahlil qilinganda turli modellar hosilasi sifatida o'ziga xos morfologik strukturaga ega ekanligi kuzatiladi. Shimoliy Tojikiston toponimlarining qo'shma tarkibli turlarini morfologik asosi va tuzilish modeliga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

ot+ot: Bozortepa, Isiriqsoy, Toshkalla, Soymahalla, Jarko'cha, Anhorariq, Qoravultepa, Toshko'prik, Tog'ayak, Kampirdevor, Taxtabuloq, Qo'ytoshi, Zovtepa, Eshonqo'rg'on, Baxmalbuloq, Toshqo'ton, Gulqishloq, Qiyg'irtepa, Chumolitepa, Qo'ziyyaylov, Jarbuloq, Nayzajar, Osmonyaylov, Momomozor, Munchoqtepa, Arabbuloq, Chumchuqorol, Bo'rijar. Toponimlarning ushbu ot+ot qolipi hosilasi sifatidagi turida har ikkala komponentini ham ot so'z turkumidagi turdosh otlar egallab, yer rel'efi, soylik, daryo, yaylov, guzar, mahalla, qishloq, qabriston, bog', buloq kabi geografik obyektlarni nomlashda faol ishtirok etadi. Ushbu qolip komponentlari o'rtasidagi munosabatni asosan aniqlovchi-aniqlanmish tashkil qilganligi kuzatiladi.

Sifat+ot tuzilish modeli ham Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfologik tuzilishida faol, sermahsul bo'lib, birinchi komponentini, asosan, rang-tus, hajm-o'lchov, joylashuv o'rinni ifodalovchi tub va yasama sifatlar egallasa, ikkinchi komponentini yer rel'efi, aholi punktlari, maydon, ariq, masjid va qabriston kabilarni

ifodalovchi so‘zlar to‘ldirib keladi. Bu singari qo‘shma tarkibli toponimlar komponentlari o‘rtasida aniqlovchi-aniqlanmish munosabatining ifodasi aks etadi.

Sifat+ot tuzilishli toponimlar: Yangiqo‘rg‘on, Oqqal’a, Oqyer, Egriqo‘tan, Sho‘rqishloq, Balandtarnov, Oqtom, Qoramozor, Shirinsoy, Yangiqishloq, Oqsu, O‘rtamachit, Oqtepa, Qorasuv, Qorabo‘yin, Yakkasada, Yangichak, Sho‘rbuloq, Oqmachit, Yangiariq, Qizilqum, Kattasoy, Oqsoqol, Qizilqiya, Ko‘rbuloq, Qorasoqqol, Kattashibor, Qoratosh, Sotqinbulo, Sariqbuloq, Sho‘rko‘rg‘on, Qorajingil, Yomonsoy, Sho‘rko‘l, Yakkaterak, Boytepa, Qizilolma, Ko‘ktosh kabilar. Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, hajm-o‘lchov, rang-tus bildiruvchi sifatlar ushbu turdagи toponimlarning tarkibida salmoqli miqdorni tashkil qiladi.

Shimoliy Tojikiston toponimlarining qo‘shma komponentli turi orasida kam miqdorda bo‘lsa-da, ot+sifat tuzilishli toponimlar ham kuzatiladi: ot+sifat: Yulduzko‘k, Jiyanchuqur, Qozonko‘k, Tegishko‘k kabilar.

Son+ot tuzilishli toponimlar ham mavjud: Chorqishloq, Mingbirbuloq, Uchtepa, Uchtaypon, Uchbog‘, Beshbola, Beshqo‘ton, Beshkal, Beshyuz, Beshkapa, Beshariq, Beshtol, Oltiko‘l, Yettiqiz, Yettiuy, To‘qsonkoriz, To‘qqizchelak, O‘nena, O‘ntepa, Qirqquduq kabilar. Qayd qilinganlardan ma’lum bo‘ladiki, uch, besh, olti, yetti kabi miqdor bildiruvchi so‘zlar toponimlarning hosil bo‘lishida faol uzv sifatida ishtirok etadi. Nafaqat Shimoliy Tojikiston, balki O‘zbekiston respublikasining ko‘plab hududlarida ham besh so‘zi ishtirokida shakllangan geografik nomlar mavjud. Birgina Qashqadaryo hududida Beshariq, Beshbek, Beshbola, Beshbuloq, Beshgumbaz, Beshkent, Beshdarak, Beshkal, Beshkaltak kabi 25 ta toponim qayd etilgan [6.57-62]. Ushbu qo‘shma tarkibli toponimlarning qismlari o‘zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida bo‘ladi. Shu o‘rinda dovon so‘zi bilan ma’nodoslik munosabatida bo‘la oladigan oshuv, bel, o‘tku kabi so‘zlar ham ushbu hudud toponimiyasida qo‘shma tarkibli toponimlarning ikkinchi uzvi sifatida oronimlarning tarkibida ishtirok etganligini qayd qilib o‘tish lozim. Oqbel (o‘tish dovoni nomi), Eshako‘tku (Qirg‘izistondan Matcho tumaniga o‘tish dovoni nomi), Eshakoshuv (Sho‘rql qishlog‘idagi dasht nomi).

Shimoliy Tojikiston toponimlarining qo‘shma tarkibli turini leksik-semantik jihatdan ham tasniflash mumkin. Bu tasnidha qo‘shma komponentning birinchi uzvi asos sifatida tanlansa, quyidagi tipdagи qo‘shma toponimlar qayd qilinishi lozim bo‘ladi:

Antroponim+ot tipi. Ot+ot tuzilishli qo‘shma toponimlarning birinchi komponenti atoqli otdan, xususan, antroponimdan tashkil topgan ko‘rinishlari ham

har xil geografik obyekt nomlari sifatida xizmat qilgan. Masalan, Saidqo‘rg‘on, Farmonqo‘rg‘on, Xojamatbuloq, Sulaymontepa, Botirqo‘rg‘on, Odilvoytepa kabilar.

Zoonim+ot tipi. Turli jonivor va hayvon nomlari ham geografik obyekt va hududlarni nomlashda muhim va faol vosita sifatida ishtirok etib, geografik joyni boshqa yondosh, turdosh obyektlardan farqlovchi alohida belgi bo‘lib xizmat qilgan. Shimoliy Tojikiston toponimlari tizimi tarkibi tahlili ushbu hudud toponimiyasida zoonim komponentli quyidagi zootoponimlar mavjudligini ko‘rsatdi: Qo‘ytoshi, Jayrakamar, Qo‘ziyaylov, Echkiqir, Tuyacho‘kdi, Tuyabo‘g‘iz, Bo‘rijar, Qoplontepa kabilar. Bundan tashqari, zoonimlar ishtirok etgan qo‘shma toponimlarning zoonim+fe’l tipli ko‘rinishlari ham kuzatildi: Bo‘riteshgan, Bo‘rijurgon, Bo‘riqochar , Itkiran. Zoonim asosli toponimlar sifatida Oltiayg‘ir, Olabaytal kabilarni ham qayd etish mumkin.

Fitonim+ot tipi. Shimoliy Tojikiston toponimlari tizimida fitonim asosli joy nomlari unchalik katta miqdorni tashkil qilmaydi. Biroq mikrotoponimlar sifatida o‘ziga xos o‘rin egallahini quyidagi misollar orqali kuzatishimiz mumkin: Teraklikmozor, Isiriqsoy, Gulqishloq, Bodombog‘, Lolatepa, Qamishqo‘rg‘on kabilar. Fitonimlarning qo‘shma tarkibli toponimlar ikkinchi komponenti bo‘lib kelgan ko‘rinishlari ham uchraydi: Yakkasada, Qorajingil, Konibodom, Beshtol, Jirintol, O‘rmontol, Qizilolma, Qo‘shtut kabilar. Bundan tashqari, Sho‘ralalmi, Tariqekan tipidagi toponimik birliklarni ham fitotoponim sifatida qayd qilish lozim.

Etnonim+ot tipi. Shimoliy Tojikiston toponimlari tarkibida o‘zbek etnonimi bilan bir qatorda tojik, qirg‘iz, tatar, qozoq, arab kabi etnik nomlar yordamida hosil bo‘lgan toponimlar kuzatiladi. Aytish mumkinki, Shimoliy Tojikiston hududidagi ellikka yaqin geografik obyekt nomlarining shakllanishida etnonimlar asos bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu tipdagagi, ya’ni etnotoponimlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish lozim: O‘zbekqishloq, O‘zbekmozor, Arabbuloq, O‘zbekkunjak, Mo‘g‘ulariq, Arabmahalla, Qozoqtepa, O‘zbekpashshi, Qoraqalpoq, Qirg‘izqishloq kabilar. Qo‘shma tarkibli etnotoponimlardan tashqari yakka asosli etnotoponimik birliklar ham boshqa hudud toponimiyasidagi singari Shimoliy Tojikiston toponimlari tarkibida keng qo‘llanilganligini kuzatish mumkin: Chingiziylar, O‘zbeklar, Yag‘noblik, Matchoyilar, Bolg‘ali, Qarapchi, Nayman, Qatag‘an, Qipchoq, Kenagas, Turk, Mang‘it, O‘roqli, So‘loqli, Uyas, Uvoq, Xitoy, Arablar, Ishqili kabilar.

Oronim+ot tipi. Ma’lumki, toponimlar tarkibida oronimlar yetakchi o‘rinlardan birini egallab keladi. Shimoliy Tojikiston toponimiyasida ham oronimlarning faolligini kuzatishimiz mumkin. Oronim+ot tipli toponimlar sifatida quyidagilarni

qayd etamiz: Tog‘oyoq (Tog‘ayak), Zovqo‘ton, Jarsuvot, Jarqishloq, Jarqo‘rg‘on kabilar.

Bundan tashqari, oronimlar qo‘shma komponentning ikkinchi uzvini egallab kelgan holatlar ham kuzatiladi: Bozortepa, Jarko‘cha, Beklartepa, Qoravultepa, Jiyanchuqur, Oqtepa, Qorakamar, Jayrakamar, Chumolitepa, O‘rtaqir (ekin maydoni), Qizilqiya, Nayzajar, Echkiqir, Taltepa, Egrijar, Qashqatepa, Kattadara, Oqbel, Boshtovoq, Qoratog‘, Oqjar. Bu kabi toponimlarning qurilish tiplarini ot+oronim, sifat+oronim tarzida belgilaymiz.

Shuningdek, oronim+oronim tripli, ya’ni har ikkala komponenti ham oronimlardan tarkib topgan orotoponimlar Shimoliy Tojikiston toponimlari tarkibida ham, kam miqdorda bo‘lsa-da, kuzatiladi. Jumladan, G‘ortepa, Davvontepa, Zovtepa.

Gidronim+ot tipi. Toponimlar tizimida suv va suv inshootlari bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi birliklar ham keng o‘rin egallab turadi. Bu holatni kuzatuvimizdagи toponimlar tarkibidagi gidrotoponimlar ham dalillaydi. Ariq, buloq, daryo, kanal kabilarga atab qo‘yilgan nomlar bilan birga boshqa geografik obyektlarni atash uchun ham gidronimlar faol qo‘llanilganligini quyidagi misollar orqali ham kuzatishimiz mumkin: Taxtabuloq, Gumbuloq, Zaxsuv, Qo‘turbuloq, Sho‘rbuloq, Mingbirbuloq, Balchiqbuloq, Boshbuloq, Jarbuloq, Ko‘rbuloq, Arabbuloq, Toshbuloq, Sotqinbuloq, Xulbabuloq, Rahnaariq, Takanariq, Dahanaariq, Ovchiariq, Qorasuv, Surfasoy, Qoziariq, Oqsu, Yomonsov, Sho‘rko‘l, Kunjaksoy, Ashtsov, Qorasuv, Anhorariq, Kattasoy kabilar. Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, gidronimlar nafaqat suv va suv bilan bog‘liq obyektlarni nomlash, balki mahalla, qishloq, ovul, yaylov kabi geografik obyektlarni atash uchun ham xizmat qilgan, bu jarayonda buloq, ariq, ko‘l kabi gidronimlar eng faol birliklar sifatida qayd qilinishi lozim. Gidronim asosli toponimik birliklar qo‘shma tarkibli toponimlarning komponentlaridan birini egallab, qaratuvchi-qaralmish, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida bo‘lgan.

Shimoliy Tojikiston toponimlari orasida sodda va qo‘shma tarkibli turlaridan farqlanuvchi murakkab tarkibga ega ko‘rinishlari ham kuzatiladi. Bunday murakkab tarkibli toponimlar birikma shaklida bo‘lishi, ikki, uch va undan ortiq komponentni o‘z ichiga olishi, o‘ziga xos grammatic tuzilishi, turli asoslardan tashkil topganligi bilan alohidalik kasb etadi. Ular shaklan murakkab so‘z birikmasiga, ayrim hollarda gapga teng keladi. Ana shu xususiyat ham ularni murakkab tarkibli toponimlar sifatida ajratishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchi O.Begimov o‘zining Janubiy O‘zbekiston hududi oronimlarining taddiqiga bag‘ishlangan dissertatsion ishida Janubiy O‘zbekiston murakkab tarkibli oronimlarini shakliy tuzilishiga ko‘ra birikma

shaklidagi oronimlarga va gap shaklidagi oronimlarga ajratgan [1.251-252]. Shunga monand biz ham Shimoliy Tojikiston murakkab tarkibli toponimlarini ikki guruhga ajratgan holda tahlil qilamiz:

1. Birikma shaklidagi toponimlar.
2. Gap shaklidagi toponimlar.

Birikma shaklidagi toponimlarni grammatick tabiatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Moslashuv yo‘l bilan (qaratqich+qaralmish) birikuv hosil qilgan toponimlar. Ularning tuzilish modelini quyidagi turlarga ajratib tasniflash mumkin:

- a) ot+ot: Mozor tagi, Madrasa mahallasi, Anhor labi, Oyim bog‘i, Qo‘rg‘on ichi, G‘oyib Azlar mozori, Xo‘jand yo‘li, Tegirmonboshi, Juhutboy qo‘rg‘onchasi, Bixalifa bulog‘i, Do‘samat qiri, Nov boshi, O‘tovoldi, Sim tog‘i, Esanboy oroli kabi;
- b) ot+ot+ot: Madkarim ellikboshi mahallasi, Quyi darvoza mahallasi, Bibi Robiya mozori, Qo‘zivoy hoji mahallasi, Anjir ota mahallasi kabi;
- v) sifat+ot+ot: Qizil machit mahallasi;
- g) son+ot+ot: Qirq qoziq oralig‘i, Qirq qiz g‘ori kabilar.

Tadqiqotchi J.Latipovning “Toponimlarning yasalishi” nomli maqolasida Darbozategi, Quduqboshi, Yoqubbek guzari shaklidagi nomlar dastlab qaratuvchi-qaralmish munosabatli so‘z birikmalari sifatida vujudga kelganligi (masalan, Yoqubbekning guzari, darvozaning tegi/tagi, quduqning boshi), keyinchalik talaffuz jarayonida qaratqich kelishigi qo‘sishimchasi -ning tushishi, har ikkala komponent qo‘silib toponimik birlik sifatida qo‘llanganligi ta’kidlanadi [5-84]. Ayni holat toponimiyada faol kuzatilib, o‘zbekcha toponimlar shakllanishining qonuniyatlaridan biri sanaladi. Shuningdek, Sho‘ra lalmi, Bog‘chayi ko‘k kabi forsiy izofali birikmalardan tashkil topgan toponimlarni ham ana shu turga mansub deb hisoblash mumkin.

2. Boshqaruv yo‘li bilan birikuv hosil qilgan toponimlar. Murakkab tarkibli toponimlar sirasida ot va fe‘l so‘zlarning turli kombinatsiyali birikuvlari natijasida shakllangan joy nomlari ham morfologik tuzilishi jihatidan alohida ajralib turadi. Atoqli toponimist S.Qorayev ta’kidlaganidek, “Boshqa turkiy toponimlar kabi o‘zbekcha toponimlar orasida ham fe‘l shakllari keng tarqalgan. Kuyganyor, Qolgan Sir, Qolgan Chirchiq, Shomurot yorgan”[15-26]. Fe‘l so‘zlar ishtirok etgan toponimlarning tuzilish tipi sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

- a) ot+hozirgi kelasi zamon sifatdosh shakli: Tillotopar, Tangatopar;
- b) ot+o‘tgan zamon sifatdosh shakli: Bo‘riteshgan, Bo‘rijurgan, Toshgachiqqan, Itkirgan, Bo‘riqochar, Tariq ekkan. Bu kabi tuzilishli toponimlar tarkibida elliptik

hodisasi yuz bergan. Dastlab toponimlarning shakllanish bosqichida toponimning tarkibida geografik obyektni anglatuvchi geografik termin ham ishtirok etgan. Tilning tejamlilik tamoyiliga ko‘ra muayyan davr, vaqt o‘tishi davomida toponim tarkibidagi indikator (masalan, tog‘, tepa, qir, dara kabilar) tushirib qoldirilgan, uni atoqli ot tarkibida qo‘llash ehtiyoji yo‘qolgan.

v) o‘tgan zamon sifatdosh shakli+ot: murakkab tarkibli toponimlar orasida fe’l+ot tuzilishli Qolganqipchoq, Qolgansir kabilarni morfologik tuzilishi jihatidan alohida tur toponim sifatida qayd qilish lozim.

Shimoliy Tojikiston toponimlarining tarkibida gap shaklidagi joy nomlari ham uchraydi. Bu turdagи toponimlar tarkibi, asosan, ikki komponentli bo‘lib, ot+fe’l tuzilishlidir: Biyaso‘ydi, Tuyacho‘kdi, Biykeldi, Chaldivoldi, Xo‘ja Saroy topdi kabilar. Ko‘rinadiki, gap shaklidagi toponimning ikkinchi qismini fe’lning tuslangan shakli to‘ldirib kelgan. Bu turdagи toponimik birliklar asosan bog‘, ekin maydoni, daryo, tepalik, qishloq, qabriston kabilarning nomi sifatida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Gap shaklidagi toponimlarning alohida xususiyati shuki, -di, -gan/-kan/-qan, -r/-ar, -mas kabi fe’l shakllari ishtirok etgan ega+kesim modelidagi, ya’ni sodda gap shaklidagi toponimlar muayyan obyektda yuzaga kelgan voqeа-hodisa haqida axborot berib turadi. Ushbu holatga nisbatan tadqiqotchi Sh.Temirov oronimlar doirasida quyidagicha munosabat bildiradi: “Ega+kesim tuzilishidagi sodda gap qolipli fe’llar oronimlarning grammatick tuzilishi va yasalishida alohida tip hamda turni tashkil etadi” [11-88].

Xulosalar Shimoliy Tojikiston toponimlarining morfologik strukturasi, tarkibiy tuzilishi O‘zbekiston hududi toponimlari strukturaviy xususiyatlari bilan umumiylig kasb etadi. Tahvilga tortilgan toponimlar sirasida shakliy tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma tarkibli turlari miqdoran ko‘p bo‘lsa, murakkab tarkibli turlari boshqa hududlar toponimiyasidagi kabi kam miqdorni tashkil etadi. Sodda tarkibli toponimlar asosan antroponom, etnonim, zoonim, fitonim asosli orografik indikatorlardan tarkib topganligi kuzatiladi. Murakkab tarkibli toponimlar esa birikmali va gap shaklida bo‘lib, sintaktik jarayonning o‘ziga xos izlarini o‘zida shaklan saqlab kelayotganligi kuzatilsa-da, botinan onomastik birlikning ma’no va vazifasini o‘zida mujassam etgan atoqli ot maqomiga ega sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегимов О. Жанубий ўзбекистон оронимларининг тарихий-лисоний тадқики: Филол. фан. докт. ... дисс. – Самарқанд, 2021. – Б. 251–252.
2. Додихудоев Р.Х. Микротопоними Испечак// Масалаҳои забони тоҷики (мачмуу илмӣ, ч.2). – Душанбе, 1992. – С. 3-9.

3. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
4. Карпенко Ю.А. Свойства и источники микротопонимии. Микротопонимия. – М.: Изд-во МГУ, 1967. – С. 15-22.
5. Латипов Ж. Топонимларнинг ясалиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – 2-сон. – Б. 84.
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Мұхаррир, 2009. – Б. 57–62.
7. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарынской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.
8. Никонов В. А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 180 с.
9. Суперанская А.В. Языковые и внеязыковые ассоциации собственных имен. Антропонимика. – М., 1970. – С. 3–18.
10. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 19.
11. Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 88.
12. Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 38.
13. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент, 1989. – Б.30.
14. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясаш усули масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1999. – 4-сон. – Б. 35–42; Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – 168 б.
15. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 26.
16. Turdibekov M. Shajarayi turk onomastikasi. – Toshkent:2020, Nodirabegim, 87-b.
17. Turdibekov M. Shimoliy Tojikiston tarixiy topominlari. – Toshkent: 2022, 236-b.